

QANG'LI, QIPCHOQLARNING XORAZMSHOHLAR DAVLATI QO'SHINIDAGI FAOLIYATI VA AHAMIYATI

Davletov Xurshid Yuldashevich

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Urganch filiali Tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Qang'li, Qipchoqlar Xorazmshohlar davlatining siyosiy, ijtimoiy va davlat boshqaruvi sohasida ham katta o'ringa ega bo'lishgan. Ular sekin asta hokimiyatda muhim davlat lavozimlarini ham egallab borishgan. Xorazm davlati qo'shinida Qang'li Qipchoq turk qabilalari alohida o'rin tutgan. Ular armiyaning asosiy qudratini tashkil qilgan paytdan boshlab davlat taqdirini ham nazorat qilishgan. Qang'li-Qipchoqlarning janglarda dushmanlar ustidan qozonilgan g'alabalarda hissasi katta bo'lgan.*

Kalit so'zlari: *Qang'li, Qipchoq, siyosiy, istilo, g'uriylar, harbiy lavozim, qabila, markaziy shaharlar*

Abstract: *Kangli, Kipchaks had a great place in the sphere of political, social and state administration of the Khorezm Shahs. They gradually occupied important state positions in the government. In the army of the Khorezm state, the Kangli Kipchak Turkish tribes had a special place. They also controlled the fate of the state from the moment they formed the main power of the army. The Kangli-Kipchaks made a great contribution to the victories over the enemies in the battles.*

Key words: *Kangli, Kipchak, political, conquest, Hurrians, military post, tribe, central cities*

Xorazmshoh Takashning Turkon Xotun bilan nikohidan so'ng Qang'li turklari o'z chorvalari, harbiy qismlari bilan birgalikda Xorazmshoh xizmatiga kirib qarindosh-urug'chilik aloqalarini yanada kuchaytirdilar. Qoraxitoylarga qarshi olib borilgan harbiy harakatlarda qang'lilardan tarkib topgan qo'shinning ishtirok etishi, xorazmshohlar davlatining g'alabalari ular mavqeining oshib borishini ta'manladi. Ayniqsa, qoraxitoylar va g'uriylarga qarshi kurashda ularning hissasi katta bo'lgan. Xorazmshoh Takash ushbu qabila raislarini xizmatlari uchun munosib ravishda rag'batlantirib borganligi, muhim davlat lavozimlari, hamda ko'plab shaharlarga hokim sifatida tayinlaganini ko'rishimiz mumkin. Xorazmshohlar davlatining markaziy shaharlari bo'lgan Nishopurga Amir Kezlik (Amir Kezli Ko'zluk), O'trorda G'ayirxon (Inolchik), Buxoroda Ko'kxon, Samarqandda hokim sifatida To'rt Aba, Hirotda Amin Malik kabilar tayinlangan. Humortegin ham saroyda turkey qabilalarning obro'si ortib borishi natijasida hokimiyatni egallashga harakat qilgan edi.¹

Xorazmshohlar davlatining buyuk siymolaridan bo'lgan Turkon Xotun ham qang'lilardan bo'lganligi sababli, davlat boshqaruvida yana ko'plab amaldorlarni o'z urug'idan bo'lishini istadi, o'g'li Xorazmshoh Alouddin Muhammadning vorisi sifatida O'zloqshohni valiahd bo'lishi uchun harakat qildi. O'zloqshoh Jaloliddindan farqli ravishda Xorazmshoh Alouddin Muhammadning qang'li qabilasidan bo'lgan xotinidan tug'ilgan edi. Saroyda shahzodalarning qang'lilardan qiz olish odati urfga kirdi. Xorazmshoh Jaloliddin ham qang'lilardan bo'lgan Amin Malikning qiziga uylangan.²

Xorazmshohlar davlati to'g'risida qilingan tadqiqotlarda qo'shinning turli etnik guruhlaridan tuzilganligi, ayniqsa, yollanma turkiylarning ahamiyati katta bo'lganligi ta'kidlanadi. Haqiqatan, Xorazmning Saljuqiylar ta'siridan qutilishi, g'uriylar bilan orani ochiq qilish hamda qoraxitoylarga qaramlikdan qutilishida ushbu yollanma qo'shinning hissasi beqiyos edi. Mo'g'ullar, xorazmshohlar va temuriylar davlatining harbiy holatini chuqur o'rgangan rus harbiy tarixchisi M.Ivanin xorazmshohlar davlatining mo'g'ullar tomonidan qiyinchiliksiz bosib olinganligining sababi sifatida Xorazmshohlar davlatining qang'lilardan bo'lgan Turkon xotunning siyosiy obro'si oshib borishi va natijada barcha yuqori harbiy lavozimlarga o'zning urug'idan bo'lgan ishonchsiz va itoatsiz aslzodalarning tayinlashi edi, deb ko'rsatadi.³

Qangli-qipchoq turk qabilalari Xorazm davlati qo'shinida alohida o'rin tutgan. Ular armiyaning asosiy qudratini tashkil qilgan paytdan boshlab davlat taqdirini ham nazorat qilishdi. Bu hukmron element Xorazm davlati uchun ham katta omil bo'lgan. Xorazmshoh Otsiz davrida Qangli-Qipchoq qabilalari Xorazm qo'shinida qatnasha boshladilar. Xorazmshoh Otsiz mintaqada ko'proq samarali faoliyat yurita olmasligini bilib butun diqqatini Xurosondagi voqealarga qaratishi kerak edi.

Xorazmshoh Otsizning vafotidan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Arslonxon (1156) davrida mintaqada jiddiy faoliyat yuritilmagan. Juzjoniyning ma'lumotlariga ko'ra garchi osoyishta muhit ta'minlanganligi haqidagi bayonotdan taxmin qilish mumkin bo'lsada, Rashididdin Vatvatga tegishli ma'lumotlarda "kofir" deb ta'riflangan turk qabilalari Xorazm viloyatiga tahdid solgan.

Qang'li-Qipchoqlar va Xorazmshohlar, Sulton Takash o'rtasidagi munosabatlar yuqorida aytib o'tgan davrimizgacha rivojlanagan. Ularning Xorazmshoh qo'shinida ko'p sonli bo'lganligi Xorazmshoh Takashning Turkon Xotun bilan turmush qurish natijasidir. O'rnatilgan bu qarindoshlik natijasida Qang'li-Qipchoqlar Xorazm davlatida o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Turkon Xotun qudrati ta'sirida Qang'li Qipchoqlar zadogonlar safidan o'rin olishdan tashqari, qo'shin tarkibidan ham katta o'rin egallab boshlaganlar.

Qang'li Qipchoq qo'shini Xorazm qo'shini bilan hech qanday tarzda bog'lanmagan. Keyingi davrlarda Qang'li Qipchoqlarning Xorazmshohlarga bo'lgan

sadoqatlari ularning davlatni boshqarish mahoratlarining qandayligiga bog'liq bo'lib brogan.

Sulton Alouddin Xorazmshoh hukmronligi davrida Qang'li-Qipchoqlarning davlat uchun foydasi ham zarari ham bor. Qangli boshlig'i Qodirxon va Kezlikxonning 1208-yildagi qo'zg'oloni Sulton Alouddinni biroz band bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Boshqa tarafdin Alouddin Xorazmshoh (1218) Qangli-qipchoqlardan tashkil topgan va soni jihatidan ustun bo'lgan qo'shini bilan mo'g'ullarni katta qiyinchiliklar bilan qaytarib oldi.

Biroq eng muhim voqea O'tror voqeasi va Alouddin Xorazmshohning bu voqeaga munosabatidir. Sultonning O'trordagi hokimi Inalxon mo'g'ullarning mol-mulkini musodara qilib, 450 kishini o'ldirdi. Chingizxon Sultondan jinoyatchini jazolashni so'radi. Lekin Sulton uni jazolamadi, bunga sabab Turkon Xotun va uning bu qabilaga tegishli ekanligi sabab bo'lishi mumkin. Agar jazolaganda kuchli qdratga ega, qang'i-qipchoqlardan iborat qo'shini o'ziga qarshi bo'lib qolishi mumkin edi.⁴

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Qang'li-qipchoqlar Xorazmshohlar davlatida boshqaruviga sekin asta kirib borgan va har bir sulton davrida ham qo'shinda asosiy ro'lni o'ynay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar!

1. Abdrimov.B, Abdukarimov.L. Xorazm - turkiylar chorrahasida.- Buxoro: "Durdona", 2022.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahongusho. Nazarbek Rahim tarjimasii.- Toshkent: "Mumtoz so'z", 2015.341-bet
3. Иванин М.И. Чингизхан и Тамерлан. С-Петербург.1875, s 52
4. Gurbuz.M. Xorazmshohlar davlat tashkilti, iqtisodiyot va madaniy hayoti. Istanbul, 2005.